



Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi maktablariga QABUL IMTIHONI MATERIALLARI SPETSIFIKATSIYASI

MATEMATIKA

10-SINF

2024/2025-o'quv yili

Mazkur test spetsifikatsiyasining maqsadi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tasarrufidagi maktablarga qabul jarayonida o'quvchining matematika fanidan bilim darajasini aniqlash, qabul imtihonida qo'llaniladigan test variantlari strukturasi va unga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

● Matematika fani bo'yicha qabul imtihoni

Ixtisoslashtirilgan maktablarning 10-sinfiga o'quvchilarni qabul qilishda saralash imtihoni matematika fanidan test shaklida o'tkaziladi.

Matematika fani bo'yicha qabul imtihoni fan bo'yicha o'quvchilarning savodxonlik darajasini diagnostika qilishga mo'ljallangan topshiriqlardan iborat bo'ladi.

● Matematika fani bo'yicha qabul imtihoni materiallari qamrab olgan sohalar

Saralash imtihonining fizika fani bo'yicha test savollari umumta'lim maktablarning 1-9-sinf mavzularini qamrab olgan.

1. Sonlar va amallar
2. Algebra va funksiyalar
3. Geometriya va o'lchashlar
4. Statistika va ehtimollik

● Qabul imtihonida diagnostika qilinadigan o'quv va aqliy faoliyat ko'rsatkichlari

Diagnostika ishi o'quvchilarning matematika fani bo'yicha quyidagi o'quv va aqliy faoliyat ko'nikmalarini nazorat qiladi.

Faoliyat turi	O'quv va aqliy faoliyat ko'nikmalari darajasiga qo'yiladigan talablar
Qo'llash	Sonlar va kattaliklar, geometrik va o'lchashlar, ma'lumotlar bilan ishlashlarga oid qonun va qonuniyatlar, formulalarni misol va masalalarga qo'llaydi, berilgan topshiriqlarga mos usullarini tanlaydi va amaliyotda qo'llay oladi.
Mulohaza	Sonlar va kattaliklar, geometrik va o'lchashlar, ma'lumotlar bilan ishlashlarga oid muammo (masala)ni yechishda mantiqiy, kreativ fikrlash, matematik mushohada yuritish va ilmiy izlanish usullari: kuzatish, o'lchash, tajriba o'tkazish, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va analogiyalardan foydalana oladi.
Tahlil qilish	Matematikaga oid fikrni asoslash, isbotlash yoki o'zgarlar fikriga munosabat bildirish uchun mantiqan asosli va tushunarli dalillarni keltirish. Aqliy faoliyatga asoslangan mantiqiy fikrlash, taxmin qilish, xulosa chiqarish, dalillar keltirish, asoslash, xulosalash, asoslov va sabablar ustida fikrlash, Qo'llaniladigan ta'riflar, qoidalar, tushunchalar, algoritm va usullar, matematik yechimlar va xatolar ustida fikr yuritish. Yaxlit matematik tushunchani hosil qilish uchun matematik tushunchalarni birlashtirish yoki birini ikkinchisining ustiga qurish
Matematik modellashtirish	Matematik modellashtirish; o'quv va hayotiy muammolarni matematika tilida ifodalash, ularning matematik modelini qurish; muammoli vaziyatlar mohiyatini o'qib tushunish, tahlil qilish va unda keltirilgan muammoni aniqlash. Tabiat, jamiyatdagi hodisa va jarayonlarni tushuntirish va modellashtirish uchun turli matematik talqin usullaridan foydalanish.
Muammoni hal qilish	Matematikani qo'llab muammoni hal qilish; hayotiy muammo va amaliy matematik masalalarni yechish uchun o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar, g'oyalar, qonuniyatlar, algoritmlar va metodlaridan foydalanish; muammo (masala)ni yechishda mantiqiy, kreativ fikrlash, matematik mushohada yuritish va ilmiy izlanish usullari: kuzatish, o'lchash, tajriba o'tkazish, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va analogiyalardan foydalanish

● Matematika fani o'quv dasturi mazmunining bo'limlar hamda o'quv va aqliy faoliyat ko'nikmalari bo'yicha qamrab olinishi

Mazmun sohasi bo'limi	Mazmun sohasi mavzusi bo'yicha egallangan ko'nikma	Tahlil		Qo'llash		Mulohaza	
		Fundamental	Nostandart	Fundamental	Nostandart	Fundamental	Nostandart
Algebra va funksiyalar	Kvadrat funksiyaning grafigini yasash.				1		
	Funksiyalarning juftligi va toqligiga oid masalalarni yecha olish.	1					
	Funksiyaning aniqlanish sohasini topa olish. Kvadrat tengsizlik va uning yechimini topa olish. Intervallar usulini qo'llay olish		1				
	Ikkinchi darajali tenglama qatnashgan eng sodda sistemalarni yecha olish				1		
	Ikkinchi darajali bir noma'lumli tengsizliklar sistemalarini yecha olish	1					
	Trigonometrik ayniyatlarni qo'llay olish. Qo'shish formulalari, ikkilangan burchakning sinusi, kosinusi formulalarini, keltirish formulalarini, sinuslar, kosinuslar yig'indisi va ayirmasi formulalarini qo'llay olish	1			1		
	Arifmetik progressiyaga oid topshiriqlarni yecha olish. Arifmetik progressiya dastlabki n ta hadining yig'indisini formulasini qo'llay olish.						1
	Geometrik progressiyaga oid topshiriqlarni yecha olish.. Geometrik progressiya dastlabki n-hadining yig'indisi formulasini qo'llay olish. Cheksiz kamayuvchi geometrik progressiyaga oid topshiriqlarni yecha olish.					1	
Statistika va ehtimollik	Kombinatorikaning asosiy qoidasi va uni masalalarni yechishda qo'llash						1
	Hodisaning ehtimoligini topa olish						1
	Tasodifiy hodisaning nisbiy chastotasini topa olish. Tasodifiy miqdorlarning sonli xarakteristikalariga oid topshiriqlarni yecha olish.			1			
Geometriya va o'lchashlar	O'xshash uchburchaklarning xossalari qo'llay olish. To'g'ri burchakli uchburchakdagi proporsional kesmani yasash	1					
	Uchburchakning yuzini burchak sinusi, yordamida hisoblash.	1			1		

Mazmun sohasi bo'limi	Mazmun sohasi mavzusi bo'yicha egallangan ko'nikma	Tahlil		Qo'llash		Mulohaza	
		Fundamental	Nostandart	Fundamental	Nostandart	Fundamental	Nostandart
	Sinuslar va kosinuslar teoremlarini tatbiq qilish.				2		
	Ikki vektor orasidagi burchak va ularning skalyar ko'paytmasini topa olish.	1					
	Aylanaga ichki va tashqi chizilgan ko'pburchaklarga oid topshiriqlarni bajara olish. Muntazam ko'pburchakning tomoni bilan tashqi va ichki chizilgan aylanalar radiuslari orasidagi bog'lanishni qo'llay olish.				1		1
	Doira bo'laklari yuzini topa olish.						1
	JAMI	6	1	1	8	0	5